

## DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI O'RNI VA ULARNI QO'LLASH

*Samarqand shahar XTBga qarashli*

*80-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Shukurova Shahnoza Shukurovna**

**Annotatsiya.** Hozirgi zamon sharoitida o'quvchilarni chuqur bilim olishlariga erishish, komil inson sifatida shakllantirish, ularni to'g'ri rivojlanishini yo'lga qo'yish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Vaholanki, yurtimiz kelajagi yoshlar qo'lida. Shu sababdan o'quv darslari jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** komil inson, pedagogik texnologiya, metod.

“Aziz o'g'il-qizlarim, hech qachon unutmang, xalqimiz, Vatanimiz sizlardan buyuk ishlarni kutmoqda”, - deydi muhtaram prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev. Shu sababdan Vatanga munosib farzand tayyorlash uchun ularda yetarli bilim, ma'suliyat va Vatanga muhabbatni shakllantirish kerak. Jumladan, boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarni o'rta ta'lim bosqichiga tayyorlash bilan birga ularda o'qish, mehnat qilish, tashabbus ko'rsatish, mustaqil faoliyatni egallash kabi sifatlarni rivojlantirish kabilar ham amalga oshiriladi.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borilmoqda. Aytish joizki, hozirda ta'lim texnologiyasi tushunchasini keng ma'noda tushunish mumkin, ham pedagogik fan sohasi sifatida, ham ma'lum o'qitish texnologiyasi sifatida. Texnologiya-tuzilma, didaktik maqsadlar, ya'ni vazifalarni belgilab olishdan boshlanib, ta'lim jarayonini bir butun yaxlitlikka yo'naltirishni nazarda tutadi. Bu jarayon boshlang'ich sinflar orasidagi uzviylikni ta'minlash bilan bog'liq. Bu shunday kechadiki, bir o'qituvchi to'rt yil mobaynida o'quvchilarni ta'lim tizimining o'rta bo'g'iniga olib chiqadi. Boshlang'ich sinflarda joriy etilgan yangi pedagogik texnologiya, dastlab turli fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash, ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etish, fanlarni integratsiyalash, o'quvchi faoliyatini to'g'ri izga solish, vaqtdan samarali foydalanish, tashabbuskorlik muhitini hosil qilish, ijodiy ishlash tizimini yaratish kabi qator maqsadlarni amalga oshiradi. Bajarilayotgan barcha ishlar bolani ezgulikka yo'naltirishi va bilimni chuqur egallashiga qaratilishi zarur. Bu esa o'qituvchining pedagogik mahoratiga har tomonlama bog'liq. Buyuk alloma, inson ruhiyatining muhandisi Ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" asarida shunday fikr bayon qiladi: "O'qituvchining barcha xatti-harakatlari ezgulikdan iborat bo'lmog'i kerak". Bugungi kunda ta'lim tizimini to'g'ri yo'naltirish dolzarb muammodir. Bu jarayon bola ruhiyati bilan uzviy bog'liqdir. Bu borada ruhshunos olimlar turli fikrlar bildiradi. Ular bolani ortiqcha yukdan ozod qilish, saboqlarni me'yorlash, nazariy bilimlarni hammasini amaliy mashg'ulotlar zahiriga singdirishga e'tibor berish, o'yin-mashg'ulot turlarini ko'paytirish orqali samaradorlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Haqiqatdan ham o'yin bolaga o'rin, qoniqish baxsh etadi. Masalan, kompyuter, internet hozirgi kunda ta'lim tizimida keng o'rin egallagan aniq. Bu bola faoliyatida o'z aksini topmoqda. Bundan tashqari bolalarga sayr-sayohatlar tashkil etib berish orqali allomalarimiz, xalq qahramonlari hayoti-faoliyati bilan yaqindan tanishib, o'zbek xalqining jahon xalqlari qatoridagi o'rnini va nufuzini anglashga sharoit yaratmoqdamiz. Bola tafakkurini har tomonlama rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda sayr-sayohat darslari keng

ko`lamda olib borish kerak. Chunki bolaning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng bo`ladi, undan to`g`ri samarali foydalanish esa o`qituvchining vazifasidir. Yangi pedagogik texnologiya bola faoliyatini to`g`ri yo`naltirishga qaratilgan bo`lib, avvalo uning sog`ligini muhofaza qilishni, unda turfa fazilatlarni shakllantirish uchun amaliy yondashuv rejalarini tuzishni, bu rejalarda bolani quvnoqlikka, topqirlikka undovchi vositalar jamlanishini, hozirjavoblikka, sermulohazalikka, to`g`ri raqobat qila olishga yoki faraz qila olishi qobiliyatini rivojlantirishga, ijodiy tafakkur, qilish, tadbirkor bo`lishga undovchi qator nazariy va amaliy ishlar majmuasini barqaror etishni nazarda tutadi. Ma`lumki, o`quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish, erkin va teran fikrlashga, o`z fikrlarini ravon ifodalashga o`rgatishning zamonaviy usullaridan foydalanishning o`rni beqiyosdir. Bolalarning barkamol avlod bo`lib etishida so`zlashishi madaniyati, to`g`ri va mantiqli gapira olish qobiliyati bo`lmog`i lozim. Bugungi kunda amalga oshirayotgan islohatlarimizning markazida o`quvchining ta`lim jarayonining sub`ekti – faol ishtirokchiga aylantirish yotadi. Bunga albatta interfaol usullarni (zamonaviy o`qitish usullarini) pedagogik texnologiyalarni qo`llash orqali erishiladi. Interfaol usullar bu - o`quvchi va o`qituvchi hamda o`quvchilar aro o`zaro birgalikdagi harakatdir. Interfaol usullaridagi darslar o`quvchini ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrini erkin bayon qilishga, tashabbuskorlikka, guruhlarda masalalar yechimini topishga, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlaydi. Interfaol metodlarda ish yuritish, an`anaviy usullardan voz kechish emas. Balki, mazmunni o`zaro faollikda hal eta olishdir. O`qituvchi o`quvchilarga mavzu mohiyatini turli o`yinlar asosida tushuntirib berishi mumkin. Masalan, “Baliq skileti” “Aqliy hujum”, “Munozara”, “Qor bo`ron” metodi, “Asalari galasi” metodi “Sindikat” metodi kabi bir qancha metodlarni misol keltirish mumkin. “Kichik guruhlarda ishlash” Kichik guruhlarda ishlash o`quvchilarning darsda faolligini ta`minlaydi, har biri uchun munozarada qatnashish huquqini beradi, bir-biridan sinfda o`rganishga imkoni tug`iladi, boshqalar fikrini qadrlashga o`rgatadi. Qor bo`ron metodi. Ikkiga ajratilgan guruh o`quvchilari bir

muammo yuzasidan eng ko'p to'g'ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to'g'ri javob yumaloqlangan qor ko'rinishida o'sha guruh hisobiga yozib qo'yiladi; to'plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi. Pedagogik vazifa sifatida o'yin turli vazifalarni: tarbiya vositasi, ta'lim berish, metod vazifasini, shuningdek, bolalarni o'qitish usullari vazifasini bajaradi. Didaktik o'yinlarning asosiy xususiyatlari shundaki, bularda to'g'ridan-to'g'ri ta'limga aloqador masalalar o'yin qoidalari niqobi ostida o'tadi.

### **Xulosa**

Biz yuqorida boshlang'ich sinf sinflarda fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar haqida fikr yuritdik. Pedagogik texnologiyalardan foydalangan holdagi didaktik o'yinlar fanga qiziqtirishni shakllantirishning unumli vositalaridan biridir. Shu bilan birga didaktik o'yin o'quvchilarning aqliy faolligini tarbiyalashning asosiy vositasidir. turli ta'lim metodlari bolalarda bilish, mustaqil fikr yuritish malakasini rivojlantiradi, qiziqish uyg'otadi. O'yin holatidagi darsni tashkil etish shunga olib keladiki, o'quvchi o'yinga qiziqib o'zi bilmagan holda ma'lum bilim va malakalar, ko'nikmalarni egallaydi. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitishda va tarbiyalashda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqori natijalarga erishish uchun o'qituvchi o'z ustida tinimsiz mehnat qilishi zarur. Shu o'rinda Konfutsiyning quyidagi fikrini keltirmoqchimiz, "O'zini kamol toptira olmagan inson o'zgalar kamolotini ta'minlay olmaydi".